

PIRLS:XALQARO O'QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASH TIZIMI UNING SHAKLLANISHI, MAZMUNI ,METODOLOGIYASI VA ZAMONAVIY TA'LIMDAGI O'RNI

1.Andijon davlat chet tillari instituti Tarjima
nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi talabasi

To'rajonova Gulnoza Sardorbek qizi

2. Andijon davlat chet tillari instituti Gid
hamrohligi, madaniyatlararo muloqot va
tarjimashunoslik kafedrasida o'qituvchisi

Abduraxmonov To'raxon Saydullayevich

Annotatsiya: Ushbu maqolada PIRLS xalqaro baholash tizimining yaratilish sabablari, rivojlanish bosqichlari va ilmiy asoslari va metodik yondashuvlar shuningdek o'qish savodxonligi tushunchasining mazmuni va mohiyati shuningdek ushbu xalqaro baholash tizimining bugungi kunda ta'lim tizimiga ta'siri, turli davlatlar o'rtasida taqqoslash natijasida ta'lim sohasiga qo'shayotgan hissasi va o'quvchilarda shakllanadigan va bajolaydigan kompetentatsiyalarning shakllantirishdagi ahamiyat ham tahlil qilinadi. PIRLS ning fanlararo bog'liqlikdagi ta'siri, ta'lim jarayonidagi ahamiyati va ta'lim sifatini oshirishdagi roli haqida, o'qituvchilarda malakani shakllantirishdagi ahamiyatlarini va ularning ta'sirini yoritadi.

Kalit so'zlar: PIRLS, o'qish va o'qitish savodxonligi, xalqaro baholash tizimi, kompetentatsiya, boshlang'ich ta'lim, tanqidiy fikrlash, taqqoslash, islohotlar ta'limdagi, ilmiy baholash, tashkiliy bosqich va jarayonlar.

PIRLS xalqaro ta'lim baholash tizimlari orasidagi o'qish yani literacy savodxonlikni baholaydi. U keng qamrovli va muhim bo'lgan, ilmiy asosga ega bo'lgan tadqiqot turlaridan biri hisoblanadi. To'rtinchi sinf o'quvchilaridagi o'qish orqali axborotni qabul qilish va tahlil qilishni shuningdek baholash qobiliyatini aniqlash asosiy vazifasi bo'lib ushbu

baholash tizimi har besh yilda bir marotaba o'tkaziladi. Ta'lim sifatining poydevori bo'lgan boshlang'ich sinflarda ta'lim jarayoning kuchli va bevosita zaif tomonlarini ochishga kata yordam beradi.

Sababi boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligining qay darajda shakllanishi va rivojlanishi keyinchalik ta'limning navbatdagi bosqichlarida, hatto butun hayoti davomida ham ilm olish o'rganish jarayoning muvoffaqiyatini belgilab beradi. PIRLS ning yaratilishi XX asrning so'ngi choragiga to'g'ri keladi. Aynan shu davrda yetakchi olimlar har bir darajadagi o'quvchilarning savodxonligi yani o'qish savodxonligi turlicha ekanligini va farqlar mavjudligini aniqlashadi.

Turli davlatlar doirasida misol uchun ba'zi bir davlatlardagi bolalar matnni yuzaki o'qishi va ayni shu paytda boshqa bolalar chuqur tahlil asosida matnni o'qishi, tanqid va tahlil qilish qobiliyati mavjudligi bilan ajralib turardi. Bu farqlar faqatgina ta'lim tizimiga ta'sir o'tkazmas balki mamlakatlarning iqtisodiy tomondan ham rivojlanishiga ham bevosita ta'sir o'tkazardi. Aynan shu omillar inobatga olinib ushbu dastur ishlab chiqarildi va jahon miqyosida ta'lim sifatini aniqlash va baholash bo'yicha ishonchli tizimlardan biri sifatida qo'llanib kelinmoqda.

Ushbu baholash tizimining asosiy maqsadi o'quvchining matnni qanchalik tez fursatda o'qishiga qaratilmagan. Matnni qunt bilan o'qish va tahlil qilish, mazmunini tushunish, matn ichidagi mantiqiy bog'liqlik, aloqadorlik va mantiqiy xulosa chiqara olish, yangi bilim va ko'nikma yaratish kabi qobiliyatlarni aniqlashga va shakllantirishga qaratilgan. Bu jarayonda o'quvchining matn bilan bosqichma bosqich ishlash asosiy vazifa hisoblanadi. Avvalo matnni yaxshilab tushunish, mazmunini tahlil qilish va baholash, umumlashtirib xulosa berish kabi ko'nikmalar tekshiriladi.

Tadqiqotning o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki o'qish kompetensiyasiga bog'liq bo'lgan va uni shakllantiradigan barcha omillar inobatga olinadi va tahlil qilinadi. Test natijalaridan tashqari o'qituvchining tajribasi, o'qitish uslublari, maktab tuzilmasi, uydagi muhit, oiladagi o'qish madaniyati shuningdek bolaga ajratiladigan vaqt va o'quvchining

o'qishga bo'lgan qiziqishi , psixologik holati ham o'rganiladi. PIRLS natijalari keng ko'lamli va tizimli hisoblanadi.

Bugungi kunga kelib esa ta'lim global maydonga chiqqan. Sababi mamlakatlar rivojlanishi faqatgina iqtisodiy barqarorlikka yoki tabiiy resurslargagina emas aholining intellektual salohiyati bilan o'lchanmoqda. Qaysi davlatda o'qish savodxonligi yuqori bo'lsa aynan o'sha davlat iqtisodiy jihatdan yuksaladi, bevosita ilm-fan rivojlanadi. Shu sababdan ham PIRLS davlat siyosatida ta'lim jarayonini baholashda eng katta yordamchi omil hisoblanadi.

PIRLS ning metodologiyasi xalqaro darajadi ekspertlar tomonidan ishlab chiqiladi. Tanlangan matnlar turli madaniyatlar ,turli yosh va turli psixologik holatda bo'lgan o'quvchilar uchun mo'ljallanadi. Matnlar ikki turga yani informatsion va badiiy turga bo'linadi. Badiiy matnda o'quvchidan voqealar rivojini tushunish, qahramonlarning xarakterini o'rganish hissiy jihatlarni aniqlash talab qilinadi. Informatsion matnda esa faktlarni tahlil qilish grafika va diagrammani tahlil qilish malumotlarni qayta ishlash talab etiladi.

Tadqiqotning o'tkazilish bosqichi ham bir necha bosqichdan iborat. Maktablar mezonlar asosida tanlanadi. Javoblar anonim tarzida xalqaro markazlarga jo'natiladi va keyin statistik ma'lumot ham yanigilanadi.

PIRLS ning tadqiqot tizimiga tasiri nihoyatda katta u o'quv rejalarini qayta ishlash, ko'rib chiqish va o'quvchilarning malakasini oshirish bo'yicha qator ko'rsatmalar beradi. Ko'plab mamlakatlar bunga tayanadi va boshlang'ich ta'lim metodikasini yangilaydi.

Umuman olganda o'qish savodxonligi rivojlanishi natijasida tafakkur erkin bo'ladi, ilmiy fikr kuchayadi va yangiliklarga bo'lgan qiziqish ortadi. Bunday jamiyatlarda yoshlar kitob o'qiydi, o'qiganini tahlil qiladi va baholay oladi. O'qish savodxonligi esa faqat maktabda emas balki oilada jamiyatd va ommaviy madaniyatlarni ham shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mullis, I. V. S., Martin, M. O., Kennedy, A. M., & Foy, P. PIRLS Assessment Framework. Boston College.
2. Martin, M. O., Mullis, I. V. S., & Hooper, M. Methods and Procedures in PIRLS. TIMSS & PIRLS International Study Center.
3. UNESCO. Reading Literacy and Education Development. Paris, 2019.
4. OECD. Education at a Glance. Paris, 2020.
5. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. PIRLS xalqaro tadqiqoti bo‘yicha metodik qo‘llanma. Toshkent, 2022.